

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

TO‘YNAZAROVA IRODA ABDUBOQIYEVNA

**MIRZACHO‘L HUDUDI SUV TIPLARI AYRIM GIDROBIONTLAR
POPULYATSIYALARINI TARQALISHI VA ULARNI BAHOLASH**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

To‘ynazarova Iroda Abdubоqiyevna

Mirzacho‘l hududi suv tiplari ayrim gidrobiontlar populyatsiyalarini tarqalishi
va ularni baholash..... 3

Туйназарова Ирода Абдубокиевна

Распространение популяций некоторых гидробионтов водных типов
Мирзачульского региона и их оценка 21

Tuynazarova Iroda Abdubоqiyevna

Distribution of populations of some aquatic types of hydrobionts of the
Mirzachul region and their assessment 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

TO‘YNAZAROVA IRODA ABDUBOQIYEVNA

**MIRZACHO‘L HUDUDI SUV TIPLARI AYRIM GIDROBIONTLAR
POPULYATSIYALARINI TARQALISHI VA ULARNI BAHOLASH**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/B845 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Boymurodov Xusniddin Toshboltayevich**
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Eshova Xolisa Saidovna**
biologiya fanlari doktori, professor

Umarov Farrux Ulug'bekovich
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Guliston Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi DSc.03/27.02.2020.B.01.15 raqamli Ilmiy kengashning "15" mart 2025 yil soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi 4-uy, O'zbekiston Milliy Universitetining Biologiya va ekologiya fakul'teti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.:(+99871) 246-67-72).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy Universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 25 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, Tel.: +99871 246-67-72.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «28» fevral kuni tarqatildi.

(2025 yil «28» fevral daqi 25 raqamli reyestr bayonnomasi)



Рахимова Тура
Илмий даражалар берувчи Илмий кенгаш раиси,
биология фанлари доктори, профессор

Аллабердиев Рустамжон Хамраевич
Илмий даражалар берувчи Илмий кенгаш котиби
биология фанлари номзоди, доцент

Жаббаров Зафаржон Абдукаримович
Илмий даражалар берувчи
Илмий кенгаш қошидаги илмий семинар раиси,
биология фанлари доктори, профессор

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida chuchuk suv ekotizimlarining bioxilma-xilligini saqlash muammosi global ekologik muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.¹ Inson faoliyati, jumladan, iqlim o'zgarishi, suv havzalarining ifloslanishi, invaziv turlar kirib kelishi hamda boshqa antropogen omillar gidrobiontlarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning populyatsiya sonining qisqarishiga va ayrim turlarining yo'qolib ketishiga tahdid solmoqda². Shu sababli, suv bioresurslarini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish maqsadida gidrobiont populyatsiyalarining tarqalishi va holatini o'rganishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlarni, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda inson va tabiat o'rtasida keskin tafovutlar mavjud bo'lgan hududlardagi ayrim tabiiy ekotizimlarda shakllangan biologik xilma-xillik ob'ektlarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan ba'zi tabiiy ekotizimlar tasnifiga ko'ra, ayrim sun'iy suv havzalaridagi gidrobiontlarning ahamiyati va biotop xususiyatlariga bog'liq taqsimlanishi, ekologik xususiyatlari, gidrobiontlarda yuz beradigan o'zgaruvchanlik sabablari, kamyob va yo'qolib ketish arafasidagi turlarini saqlab qolishga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda, gidrobiontlarning turli suv tiplarida tarqalishi hamda xilma-xil biotoplarga moslashuvchanligini hisobga olgan holda gidrobiontlar populyatsiyalaridagi o'zgarishlarni izohlash, hududlar kesimida bioxilma-xillikni, kamyob va endemik turlarni aniqlash, ularni tarqalishi va baholash bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda hayvonot dunyosi obyektlari kadastrini populyatsiyalar holatini inobatga olgan holda tuzish va ularni ilmiy asosda muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan respublikaning yirik suv havzalari gidrobiont faunasini saqlash, shuningdek, suv-botqoq hududlaridagi gidrobiont turlarini xalqaro standartlar asosida muhofaza qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida³ "... Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhit ifloslanishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish" vazifalari belgilalangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan Mirzacho'l vohasi turli suv tiplarida shakllangan gidrobiontlar faunasi holatini baholash, ularning ekologik guruhlarini aniqlash, suv tiplarining gidrobiokimyoviy ko'rsatkichlari ta'sirini asoslash va o'rganish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://www.nature.com/articles/nature09440>

² <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16336747/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 18-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 19 sentyabrdagi “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”⁴ gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “1992 yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”⁵ 1995 yil 6 maydagi 82-I-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.11.2018 yildagi 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”⁶ qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 yildagi 484–son “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”⁷ qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hidrobiontlarning taksonomik tarkibi, populyatsiyalari, biologiyasi, ekologiyasiga oid tadqiqotlar uzoq xorijning yetakchi olimlari J.H.Thorp., I.A.Covich (1991), D.C. Aldridge (1999), N.M.Haws (2002), M.M.Horsak (2008), N.F. Mamangkey (2009), K.Szybiak (2009) H.J.Markus (2010), A.F.Bogan (2010), E.Kuznik-Kowalska (2011), ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Yaqin xorij mamlakatlari olimlaridan K.K.Uvaliyeva (1990), V.M.Baychorov (2008), I.A.Balashyov (2009), N.I. Andreyev (2009) A.L. Rijnashvili (2009), A.V.Sintyurina, A.B.Bigaliyev (2010), G.P. Alyoxina (2010), V.F.Panov (2011), M.O. Son (2012), L.N. Yanovich (2013), V.V. Bogatov (2014), D.V. Kuzmenkin (2015), N.V.Gural’-Sverlova, R.I.Gural (2010, 2016) suvning ifloslanish darajasini aniqlashda gidrobiontlarning ahamiyati, sistematikasi, ekologiyasi, zoogeografiyasi va o‘zgaruvchanligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekiston gidrofaunasi bo‘yicha Z.I.Izzatullayev (1992, 2018, 2019), A.Pazilov (2006), A.Karimqulov (2011), F.Gaibnazarova (2017), J.Qudratov (2018), I.Mirabdullayev (2020, 2021), X.T.Boymurodov (2021), B.Otaqulov (2020), A.Egamqulov (2021), Z.Bobomurodov (2022), F.Umarov (2022), X.Solijonov (2023) va boshqalarning ilmiy izlanishlarida asosan gidrobiontlarning taksonomiyasi, evolyutsiyasi, xo‘jalik ahamiyati va ekologiyasi o‘rganilgan. Biroq, ushbu tadqiqotlarda Mirzacho‘l hududidagi turlar tarkibining hozirgi holati, biotoplar bo‘yicha tarqalishi va uni baholash, abiotik omillarning ayrim gidrabiontlarning tarqalishiga ta‘siri, kamyob va endemik turlarni saqlash choralari bo‘yicha to‘liq ma‘lumotlarni aks ettiruvchi ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu sababli, Mirzacho‘l hududida tarqalgan ayrim gidrabiontlarning

⁴ <https://lex.uz/docs/-3029502>

⁵ <https://lex.uz/ru/docs/-2666920>

⁶ <https://lex.uz/uz/docs/-4043624>

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-4372839>

ekologiyasini o'rganish, kamyob va endemik turlarni aniqlash hamda ularni muhofaza qilish va populyatsiyalarini baholash bo'yicha tadqiqotlarni olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "2017-2030-yillarda Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini tadqiq etishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar" (2017-2030) mavzusidagi dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mirzacho'l hududi suv tiplari *Unionidae*, *Corbiculidae*, *Beelgrandiellidae*, *Lymnaeidae*, *Physidae*, *Planorbidae*, *Astacidae*, *Haemopidae* oilalari gidrobiontlari populyatsiyalarini tarqalishini o'rganish va baholash hamda kamyob turlarni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mirzacho'l hududi suv tiplari *Unionidae*, *Corbiculidae*, *Beelgrandiellidae*, *Lymnaeidae*, *Physidae*, *Planorbidae*, *Astacidae* va *Haemopidae* oilalari gidrobiontlari turlar tarkibini aniqlash.

gidrobiontlarning zichligi, ularning suv tiplari biotoplarida va ekologik guruhlarda taqsimlanishini aniqlash;

suv tiplarining kimyoviy ko'rsatkichlarini gidrobiontlarning yoshi, zichligi, biomassasi va ularning morfologik o'zgaruvchanligiga ta'sirini o'rganish;

suv tiplari bo'yicha aniqlanadigan gidrobiontlar populyatsiyasining biologik xilma-xilligi va ustunlik ko'rsatkichlarini baholash hamda suvning ifloslanish darajasiga qarab gidrobiontlarning indikatorlik xususiyatlarini aniqlash;

muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolishga oid tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Mirzacho'l hududi suv tiplarida tarqalgan suv mollyuskalari, yuksak qisqichbaqa va zuluklar olingan.

Tadqiqotning predmeti Mirzacho'l hududi suv tiplari gidrobiontlari taksonomiyasi, gidrobiontlarning tarqalishi, ekologik xususiyatlari, bioxilma-xillik ko'rsatkichlari, gidrobiontlarning bioindikator xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida umum qabul qilingan usullar zoologik, ekologik, malakologik, biometrik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mirzacho'l hududi suv tiplari, *Unionidae*, *Corbiculidae*, *Beelgrandiellide*, *Lymnaeidae*, *Physidae*, *Planorbidae*, *Astacidae* va *Haemopidae* oilalariga mansub gidrobiontlarning 25 turi va 2 kenja turi aniqlangan;

turli suv tiplaridagi gidrobiontlar ekologik guruhlarga ajratilgan va abiotik omillarining gidrobiontlar hayotiga ularning tarqalishiga ta'siri o'rganilib, suvning sifat ko'rsatkichlarini gidrobiontlarning yoshi, biomassasi hamda morfologik o'zgaruvchanligiga ta'siri asoslab berilgan;

Mirzacho'l hududida suv tiplari bo'yicha gidrobiontlarning Shannon (H') va Simpson (D) indekslari bo'yicha bioxilma-xillik ko'rsatkichlari va

gidrobiontlarning bioindikatorlik xususiyatlari ochib berilgan;

Mirzacho‘l hududidagi gidrobiontlarning ayrim turlarini qisqarish sabablari asoslangan va ularni muhofaza qilishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan *Colletopterum bactrianum*, *Colletopterum cyreum sogdianum*, *Corbicula cor*, *Corbicula fluminalis*, *Corbicula purpurea* kabi endemik va noyob turlarning populyatsiyalarini muhofaza qilish hamda aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlar hamda turlarining populyatsiyalarini saqlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Suv havzalaridagi gidrobiontlarning saprobligi aniqlangan va ularning indikator xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Ishda qo‘llanilgan malakologik, gidrologik va ekologik usullar hamda yondashuvlar asosida olingan tajriba natijalarining nazariy ma‘lumotlarga muvofiqligi, Biostat-3.8 dasturlari asosida morfometrik ma‘lumotlarning statistik tahlili, Dissertatsiyaning amaliy natijalari nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar va ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘rganilgan hududda makrozoobentoslar orasida muhim o‘rin egallagan gidrobiontlarning (*Unionidae*, *Corbiculidae*, *Belgrandiellidae*, *Lymnaeidae*, *Physidae*, *Planorbidae*, *Astacidae* va *Haemopidae*) tur tarkibini aniqlanganligi, abiotik omillarning gidrobiontlarning morfologik ko‘rsatkichlariga va populyatsiyalariga ta’siri, suv tiplarida ularning tarqalishi, taqsimlanishi ilmiy asoslangan holda ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, suvning ifloslanish darajasini gidrobiontlarning indikatorlik xususiyatlari orqali suvlarning saproblilik darajasini aniqlashni amalga oshirishda, ularni ekologik baholashda, kam uchraydigan va endemik gidrobiont turlarining populyatsiyalarini saqlash va tiklash bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilganligi bo‘lib, bu Mirzacho‘l hududidagi suv tiplari gidrobiontlar xilma-xilligini saqlashda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mirzacho‘l hududi suv havzalarida gidrobiontlarning tarqalishi va ulardan iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Mirzacho‘l hududi suv tiplarida tarqalgan endem va noyob tur sifatida Qizil kitobga kiritilgan *Colletopterum bactrianum*, *Colletopterum cyreum sogdianum*, *Corbicula cor*, *Corbicula fluminalis*, *Corbicula purpurea* lar populyatsiyalarining holati va ularni muhofaza qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi tabiat resurslari vazirligining Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududiy boshqarmalari bo‘limlarining suv ekotizimlari kamyob gidrobiontlar turlarini yashash muhitida muhofaza qilish, saqlab qolish faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi tabiat resurslari vazirligining 2023 yil 17 fevral 03-02/7-449 son ma‘lumotnomasi). Natijada, suv tiplari uchun ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar orqali noyob turlar tarqalgan biotoplarni muhofaza qilish va populyatsiyalarini saqlab qolish imkonini bergan;

Mirzacho‘l hududi suv tiplari uchun ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar Jizzax va Sirdaryo viloyati daryolar, baliqchilik xo‘jaliklari, kanallar va tabiiy suv havzalari organik ifloslanish darajalarini bioindikatsiya yordamida aniqlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 29 mart 05/26-05/1347-son ma‘lumotnomasi). Natijada, *Unionidae*, *Corbiculidae*, *Beelgrandiellidae*, *Lymnaeidae*, *Physidae* va *Planorbidae* oilalari gidrobiontlari, mollyuskalari asosida tovar baliq chavaqlarini yetishtiriladigan turli tipdagi baliqchilik suv havzalarini sifatini baholash va organik ifloslanishini nazorat qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shulardan 6 tasi xalqaro va 4 tasi respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ishlar nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda va 1 ta tavsiya nashr etilgan, 1 ta elektron hisoblash mashinasi uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish qismi, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi va aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar, shuningdek dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Suv tiplari gidrobiontlar populyatsiyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi uch banddan iborat bo‘lib, 1.1-bandida **“Suv tiplarida ayrim gidrobiontlar faunasining o‘rganilish tarixi”** ga oid manbalar kektirilgan, 1.2-bandida **“Gidrobiontlarning ekologiyasiga oid olib borilgan tadqiqotlar”** ga oid manbalar tahlili keltirilgan va 1.3-bandida **“Gidrobiontlar tarqalishi va ularni baholash bo‘yicha tadqiqotlar”** ga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar sharhi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot olib borilgan hududining tabiiy geografik o‘rni va tadqiqot metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi 2 bandan iborat bo‘lib, 2.1-bandi **“Tadqiqot olib borilgan Mirzacho‘l hududining tabiiy geografik tavsifi”** deb nomlanib unda, Mirzacho‘l tekisligi Qizilqum cho‘li va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan bo‘lib, uning shimoliy qismi Qozog‘iston, janubiy qismi esa Tojikiston va O‘zbekiston chegaralariga tutashgan. Hududning tabiiy-geografik xususiyatlari turli balandlikdagi tekisliklar va tog‘ tizmalari bilan tavsiflangan. Bu hududda hayvonot dunyosida cho‘l kemiruvchilari, kaltakesak va

ilonlar, bo‘ri, tulki, bo‘rsiq uchraydi. To‘qay hududida to‘qay mushugi, to‘ng‘iz, chiyabo‘ri, shuningdek, qirg‘ovul, o‘rdak, g‘ozlar yashaydi. Sirdaryoda esa ondatra populyatsiyasi mavjud. Suv ekotizimlari daryolar, kanallar va baliqchilik xo‘jaliklari bilan ifodalananishi keltirilgan. 2.2-bandi esa **“Gidrobiontlarning ekologiyasini o‘rganish uslublari va materialari”** deb nomlangan va unda materiallarni terishda va ulani tadqiq qilish va o‘rganishda umumiy qabul qilingan zoologik, ekologik, malakologik, biometrik uslublari ya‘ni ikki pallali va qorin oyoqli mollyuskalarni ekologiyasini o‘rganishda Ploxinskiy (1970), Ya.Starobogatov, Z.Izzatullayev, (1984, 1986, 2018, 2019), A.Rijinashvili (2005), A.Pozilov (2005), L.N Yanovich (2013, 2015), Z.Izzatullayev, X.Boymurodov (2009, 2019, 2021, 2022) uslublari, qisqichbaqalarni Fomichev (1986), Alexnovich (2016), Ye.N.Aleksandrova (2014), zuluklarni Sawyer (1974), Lukin, (1976), N.Kazanci et al.(2015) foydalanilganligi bayon qilingan. Olingan natijalarning aniqligini oshirish maqsadida Microsoft Excel 2019 va SPSS-26 dasturlarida matematik-statistik tahlil qilinganligi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mirzacho‘l hududi suv tiplari gidrobiontlari bioxilma-xilligi va ekologiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobi ikki banddan iborat bo‘lib, 3.1-bandi **“Mirzacho‘l hududining suv ekotizimlari gidrobiontlari turlar tarkibi, tarqalishi va ekologiyasi”** deb nomlanib unda, tadqiqot uchun ilmiy materiallar 2018-2023 yillarda Mirzacho‘l hududi suv havzalaridan (daryolar: Sirdaryo, Sangzor, Zominsuv va G‘uralash; kanallar: Janubiy Mirzacho‘l, Do‘stlik, Jizzax magistral kanali hamda Arnasoy suv omboridan chiqish kanallari) yig‘ilganligi va bu suv tiplarida gidrobiontlarining bioxilma-xilligi, tarqalishi hamda ekologiyasiga oid tahlil natijalari keltirilgan. Bunda jami gidrobiontlarining 25 tur va 2 kenja turning taksonomik ro‘yxati keltirilgan.

Ikki pallali mollyuskalar

(Bivalvia Linne 1758) sinfi⁸

Unioniformes Stoliczka, 1871 turkumi

Unionidae Rafinesque, 1820 oilasi

***Sinanodonta* Modell, 1944 urug‘i**

1. *Sinanodonta gibba* (Benson, 1895)⁹
2. *Sinanodonta puerorum* (Heude, 1880)³
3. *Sinanodonta orbicularis* (Heude, 1880)³

***Colletopterum* Bourguignat, 1881 urug‘i**

***Colletopterum* s.str. kenja urug‘i**

4. *Colletopterum* (C.) *bactrianum* (Rolle, 1897)

***Ponderosiana* Bourgiugnat, 1881 kenja urug‘i**

5. *Colletopterum* (P.) *cyreum sogdianum* (Kobelt, 1896)
6. *Colletopterum* (P.) *ponderosum volgense* (Shadin, 1938)

⁸ Ushbu taksonomik sistemani tuzishida Z.I.Izzatullayevning (2019) “O‘rta Osiyo va unga tutash hududlarning suv ekotizimlaridagi mollyuskalar faunasi” va A.V.Kornyushinning (1996) Palearktikaning Pisidioidealari sistemasidan foydalanilgan.

⁹ Mirzacho‘l suv ekotizimlari faunasi uchun yangi urug‘ va turlar.

Cardiiformes Ferussac, 1821 turkumi

Corbiculidae Gray, 1847 oilasi

Corbicula Meqerle, 1811, urug'i

7. *Corbicula cor* (Lamarck, 1818)
8. *Corbicula fluminalis* (O.F. Müller, 1774)
9. *Corbicula purpurea* (Prime, 1864)

Corbiculina Dall, 1903 urug'i

10. *Corbiculina tibetensis* (Prashad, 1929)
11. *Corbiculina ferghanensis* (Kursalova va Starobogatov, 1971)

Qorinoyoqli suv mollyuskalari

Gastropoda guver, 1795 sinf

Liimmoriniformes (Pcelintsev, 1863) turkum

Beelgrandiellidae (Radoman, 1983) oilasi

***Martensamnicola* (Izzat., Sitn. et Star, 1985) urug'i**

12. *Martensamnicola brevicula* (Martens, 1874)³
13. *Martensamnicola hissarica* (Shadin, 1950)³
14. *Bucharamnicola bucharica* (Shadin, 1952)

Lymnaeidae (Rafinesque, 1815) oilasi

***Lymnaea* (Lamarck, 1799) urug'i**

15. *Lymnaea stagnalis* (Linnaeus, 1758)³
16. *Lymnaea truncatula* (Müller, 1774)³
17. *Lymnaea thiessea* (Clessin, 1979)
18. *Lymnaea oblonga* (Puton, 1847)
19. *Lymnaea subangulata* (Roffiaen, 1868)
20. *Lymnaea auricularia* (Linnaeus, 1758)
21. *Lymnaea bactriana* (Hutton, 1849)

Physidae (Firzinger, 1833) oilasi

22. *Costatella acuta* (Draparnaud, 1805)

Planorbidae (Rafinesque, 1815) oilasi

***Planorbis* (Geoffroy, 1767) urug'i**

23. *Planorbis planorbis* (Linne, 1758)³
24. *Planorbis tangitarenensis* (Germain, 1878)

***Anisus* (Studer, 1820) urug'i**

25. *Anisus ladacensis* (Nevill, 1878)

Qisqichbaqalar

Malacostraca Latreille, 1802 sinfi

Decapoda Latreille, 1802 turkumi

Astacidae Latreille, 1802 oilasi

***Astacidae* Bott, 1950 urug'i**

26. *Pontastacus leptodactylus* (Eschscholtz, 1823)³

Hirudinea Lamarck, 1818 kenja sinfi

Haemopidae Richardson, 1969 –(Soxta ot zuluklari) oilasi

Haemopsis Savigny, 1822 -(Soxta ot zulugi) urug'i


27. *Haemopsis sanguisuga* (Linnaeus, 1758) - (Katta soxta ot zulugi)³

Bundan tashqari gidrobiontlarning yashash muhiti va ularda tarqalishi, ularning biometrik ko'rsatkichlari hamda ekologiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil keltirilgan. 3.2-bandi esa **“Gidrobiontlarning biologik xususiyatlari”** deb nomlangan bo'lib unda, Mirzacho'l hududi suv tiplarida yashovchi gidrobiontlarning biologik xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mirzacho'l hududi suv tiplaridagi gidrobiontlar populyatsiyalari va ekologik guruhlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobi uch banddan iborat bo'lib, 4.1-bandi **“Daryolarda tarqalgan gidrobiontlar populyatsiyalari va ularning ekologik guruhlari”** deb nomlangan unda, Sirdaryo daryosida o'rganishlar natijasida 4 sinf 7 oilaga kiruvchi 20 tur va 2 kenja tur gidrobiontlarning tarqalganligi va daryoning o'rta qismida ikkipallali mollyuskalar 1 m² joyda *Unionidae* oilasi *Sinanodonta* urug'idan *Sinanodonta gibba* 1,9, *S. orbicularis* 2,1, *S. puerorum* 1,4 tadan tarqalgan lekin daryoda suv miqdorining kamayishi *Unionidae*, *Corbiculidae*, *Lymnaeidae*, *Physidae*, *Planorbidae*, *Astacidae* va *Haemopidae* oilalari turlari tarqalish areallariga o'z ta'sirini ko'rsatganligi keltirilgan. Sirdaryoda gidrobiontlarning ekologik guruhlari o'rganilganligi bunda peloreofillarning 36 % (8 tur), reofillar 14% (3 tur), pelolimnofillarning 4 % (1 tur), fitofillarning 36 % (8 tur), telmotofillar 4 % (1 tur) va fitoreofillarning 4 % (1 tur) aniqlanganligi keltirilgan. Toshloq biotoplarda 33 % (9 tur), qumloq biotoplarda 40 % (11 tur) va loyli biotoplarda 27 % (6 tur) tarqalganligi keltirilgan (1-rasm).

Sangzor daryosi qirg'og'idagi sohillarida 2 ta sinf va 7 ta oilaga mansub 19 tur hamda 2 ta kenja tur aniqlangan va *Unionidae*, *Corbiculidae*, *Beelgrandiellidae*, *Lymnaeidae*, *Physidae*, *Planorbidae*, *Astacidae* hamda *Haemopidae* oilalariga mansub gidrobiontlarning quyidagi ekologik guruhlari keltirilgan.


Peloreofillarning 38 % (8 tur), reofillarning 15 % (3 tur), pelolimnofillarning 4,7 % (1 tur), fitofillarning 38 % (8 tur) va fitoreofillarning 4,7 % (1 tur) hamda toshloq biotoplarda 28 % 6 (tur), qumloq yerlar biotoplarida 48 % (10 tur) va loylar 24 % (5 tur) tarqalganligi keltirilgan.



1-rasm. Mirzacho'l hududi daryolarida gidrobiontlarning tarqalishi.

Mirzacho'l hududi daryolarining loy oqiziqlari gidrobiontlarning tarqalishiga ta'sir ko'rsatib, Sirdaryo va Sangzorda *Unionidae*, Zominsuvda esa *Corbiculidae* va *Lymnaeidae* oilalari ustunlik qiladi. Hududning gidrologik rejimi va suv

miqdorining mavsumiy o'zgarishi gidrobiontlarning zichligi va tarqalishiga bevosita ta'sir etadi. Katta hajmdagi suv oqimlari gidrobiontlarning daryolarning o'rta va quyi qismlarida keng tarqalishini ta'minlaganligi keltirilgan. 4.2-bandi **“Kanallarda gidrobiontlar tarqalgan populyatsiyalar va ularning ekologik guruhlari”** deb nomlangan Janubiy Mirzacho'l kanali turlarning ekologik guruhlari peloreofillarning 50 % (8 tur), reofillar 12 % (2 tur), pelolimnofillarning 6 % (1 tur), fitofillarning 25 % (4 tur) va fitoreofillarning 6 % (1 tur) borligi aniqlandi (2-rasm). Do'stlik kanalida peloreofillarning 43 % (6 tur), reofillarning 7 % (1 tur), pelolimnofillarning 7 % (1 tur), fitofillarning 36 % (5 tur) va fitoreofillarning 7 % (1 tur) borligi aniqlandi (2-rasm).




2-rasm. Mirzacho'l hududi kanallarida gidrobiontlarning tarqalishi.

Jizzax magistral kanalida peloreofillarning 4 turi 50 % (*Sinanodonta gibba*, *Corbicula purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *C. ferghanensis*), pelolimnofillarning 1 turi 12,5 % (*Colletopterum ponderosum volgense*), fitofillarning 2 turi 25 % (*Lymnaea stagnalis*, *Costatella acuta*), fitoreofillarning 1 turi 12,5 % (*Lymnaea auricularia*) borligi aniqlangan. 4.3-bandi **“Mirzacho'l hududi suv tiplarida gidrobiontlar tarqalgan populyatsiyalar”** deb nomlangan Mirzacho'l hududidagi suv ekotizimlarida yashovchi gidrobiontlar yashash biotoplariga ko'ra, chashma, buloq suvlari -krenofillar, suv osti havzalarida - pelolimnofillar, loyqa suv havzalarida - peloreofillar va reofillar, suv o'simliklari orasida - fitofillar, loyqa suv havzalarida o'suvchi o'simliklar orasida - fitoreofillar, qumli va shag'alli suv havzalarida – termatofillarlar ekologik guruhlarga ajratilgan.


Dissertatsiyaning **“Mirzacho'l hududi suv tiplari da ayrim gidrobiontlar populyatsiyalariga suv muhiti omillarining ta'siri ”** nomlangan beshinchi bob, besh bandedan iborat bo'lib, 5.1-bandi **“Mirzacho'l hududi suv ekotizimlarida Unionidae oilasi Sinanodonta urug'i turlari populyatsiyalarining hozirgi holati”** deb nomlangan unda Sirdaryo viloyati hududidagi Sirdaryo daryosida aniqlangan *Unionidae* oilasiga mansub *Sinanodonta* avlodining *Sinanodonta gibba*, *Sinanodonta puerorum* va *Sinanodonta orbicularis* turlarining populyatsiya ko'rsatkichlari Sangzor daryosining o'rta oqimidagi populyatsiya ko'rsatkichlariga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlanganligi keltirilgan. 5.2-bandi **“Gidrobiontlar populyatsiyalari nisbiy zichligiga suv muhiti omillarining ta'siri”** deb nomlangan, unda Do'stlik kanalining boshlang'ich qismlarida gidrobiontlarning populyatsiyalarini *Colletopterum*, *Corbicul* va *Lymnaea*

urug'lari quyi qismifa nisbatan ko'payishi aniqlandi. Hududda suv harorati 21-24 °C, tiniqlik darajasi 0,32 metr, xlorid (Cl) miqdori esa 286 mg/l, neft va neft mahsulotlari 0,04 mg/l, kislorod 4,3 mg/l, fenol 0,001 mg/l va suv minerallanishi 998 mg/l ekanligi va quyi qismi Guliston shahridan keyingi qismida suv harorati 24-27°C, tiniqligi 0,29 m, xlorid (Cl) 362 mg/l, neft va neft mahsulotlari 0,07 mg/l, kislorod 4,9 mg/l, fenol 0,002 mg/l va suv minerallanishi 1226 mg/l ekanligi o'rganilib, undagi gidrobiontlarning yoshi va zichliklari taqqoslanganligi keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. Do'stlik kanalida boshlanish va quyi qismlarida gidrabiontlar populyatsiyalari nisbiy zichligi o'zgarishiga suv muhiti omillarining ta'siri.


Sirdayo daryosi suv tiplarida gidrobiontlardan *Pontastacus leptodactylus* tarqalishiga suv muhiti omillarining ta'siri o'rganilgan (4-rasm).




4-rasm. Mirzacho'l hududi Sirdaryo daryosini boshlang'ich va quyi qismlarida *Pontastacus leptodactylus* (Eschscholtz, 1823) turining yoshi va zichligiga suv gidrokimyoviy ko'rsatkichlarining ta'siri (dona/m², n=10).

Mirzacho'l hududidagi Sangzor daryosini boshlang'ich va quyi qismlarida *Haemopsis sanguisuga* (Linnaeus, 1758) turining yoshi va zichligiga suv gidrokimyoviy ko'rsatkichlarining ta'siri to'g'risida ma'lumot berilgan. 5.3-bandi

“Gidrobiontlarning tarqalish zichligi, yoshi, chig‘anoqlar o‘zgaruvchanligi va og‘irligiga suv muhiti omillarining ta’siri” deb nomlangan bo‘lib, Janubiy Mirzacho‘l va Do‘stlik kanallarining boshlang‘ich va quyi qismlarida suv gidrokimyoviy ko‘rsatkichlarini *Corbiculidae* oilasiga mansub ikkipallali mollyuskalar populyatsiyalarining yosh tarkibi va zichligiga ta’sir o‘rganilgan (5-6-rasm) bunda gidrokimyoviy omillar, populyatsion tuzilishning shakllanishida muhim rol o‘ynaganligi qayd etilgan.




5-rasm. Janubiy Mirzacho‘l kanali boshlang‘ich va quyi qismlarida individlarning yoshi va zichligiga suv gidrokimyoviy ko‘rsatkichlarining ta’siri (dona/m², n=10)




6-rasm. Do‘stlik kanali boshlang‘ich va quyi qismlarida *Corbiculidae* oilasiga mansub turlar populyatsiyalaridagi individlarning o‘shishi va zichligiga suvning gidrokimyoviy ko‘rsatkichlari ta’siri (m²/dona, n=10)

Tadqiqot davomida Janubiy Mirzacho‘l va Do‘stlik kanallari boshlang‘ich va quyi qismlari populyatsiyalarida tarqalgan *Corbiculidae* oilalari turlari og‘irligi va chig‘anoqlari o‘zgaruvchanligiga suv muhiti omillarining ta’siri o‘rganilgan (7-

8-rasm). Janubiy Mirzacho‘l kanali boshlang‘ich qismida suvdagi O₂ 4,2±0,9 m/g, Cl₂ 269±36 m/g, minerallar 990±61 m/g, fenol 0,001 m/g, neft va neft mahsulotlari 0,04 m/g miqdorda, suvning tiniqligi 0,36 m, harorati 22-24°C bo‘lib, quyi qismida esa suvdagi O₂ 4,1±0,6 m/g, Cl₂ 346±32 m/g, minerallar 1126±64 m/g, fenol 0,002 m/g, neft va neft mahsulotlari 0,06 m/g ni, suvning tiniqligi 0,32 m, harorati 23-26°C ekanligi qayd etilgan.




7-rasm. Janubiy Mirzacho‘l kanali tarqalgan *Corbiculidae* oilalari turlari tanasining og‘irligi va chig‘anoqlarining o‘lchamining o‘zgarishi



8-rasm. Do‘stlik kanali tarqalgan *Corbiculidae* oilalari turlari tanasining og‘irligi va chig‘anoqlarining o‘lchamining o‘zgarishi


Kanallarning boshlang'ich qismida turlar populyatsiya ko'rsatkichlari quyi qismidan farq qilgan, bunday farqlarning bo'lishiga suv muhiti omillarning ta'siri katta ekanligi ko'rsatilgan. 5.4-bandi **“Suv tiplarida gidrobiontlar populyatsiyasining biologik xilma-xilligi (Shennon indeksi H') va ustunlik (Simpson indeksi D) ko'rsatkichlarini baholanishi”** deb nomlangan bunda Mirzacho'l hududidagi daryo ekotizimida ya'ni Sirdaryo, Zominsuv, Sangzor va G'uralash soylarida tarqalgan gidrobiontlarning biologik xilma-xillik ko'rsatkichlari Shennon indeksi bo'yicha va Simpson indeksi asosida biotalardagi turlar ustunlik (dominant) indeksi o'rganilgan. Shennon ($H' = 3.05$) va Simpson ($D = 0.046$) indeksi Sirdaryo daryosi ekotizimidagi turlarning xilma-xilligini ko'rsatgan. Shennon indeksi turlarning boyligini va ularning tarqalishining bir xilligini ko'rsatib, bu ekotizim holatining ko'rsatkichi ekanligi aytilgandir. Harorat ($20-25^{\circ}\text{C}$), pH ($6,5-8,5$), erigan kislorod miqdori ($6-12 \text{ mg/l}$) va minerallashuv ($200-800 \text{ mg/l}$) kabi suv parametrlari ekotizim barqarorligi uchun maqbul sharoitlarni yaratib ushbu ko'rsatkichlar daryoda mavjud sharoitlarga moslashgan *Sinanodonta gibba* va *Corbicula fluminalis* turlar aniqlangan (9-rasm).

Shennon indeksi bo'yicha Sirdaryo daryosida 1.3, Zominsuv daryosida 1.1, Sangzor daryosida 1.3, G'uralash daryosida 0.9 ko'rsatkich bo'lib, biologik xilma-xillikning yuqori darajadagi ko'rsatkichini ($(H' > 2,5)$) Sirdaryo daryosi 3,5 bilan, Sangzor daryosi esa 2,97 bilan ko'rsatgan. O'rtacha ko'rsatkich ($2,5 < H'$) Zominsuv daryosida 2,8 va G'uralash daryosida 2,48 ni tashkil etgan.



9-rasm. Mirzacho'l hududi daryolaridagi turlarning biologik xilma-xillik ko'rsatkichi (daryolar kesimida) Shennon indeksi. H'

Simpson indeksi bo'yicha: Ustunlik indeksi ($1-D$), ($D = 0,046$) Mirzacho'l hududi daryolarida ko'rsatkich 0 dan 1 gacha bo'lgan xilma-xillikni o'lchash uchun ham qo'llaniladi (10-rasm). Daryolaridagi turlar ko'rsatkichi Sirdaryo - 0,046, Zominsuv - 0,0569, Sangzor - 0,0493, G'uralash - 0,0808 ekanligi aniqlangan.



10-rasm. Mirzacho'l hududi daryolaridagi turlar ustunlik ko'rsatkichining (daryolar kesimida) Simpson indeksi.

Gidrobiontlarning uchun qulay bo'lgan optimal harorat har xil turlar uchun turlicha bo'lib, ular haroratga keng yoki tor doirada tarqalishi bilan ajralib turadi. Ikki pallali mollyuskalarning yashashi uchun eng maqbul harorat darajasi 15 dan 26°C gacha, qorinoqqli mollyuskalar uchun 15 dan 25°C gacha, *Pontastacus' leptodactylus* uchun 18-24°C, *Haemopus sanguisuga* uchun esa 12-24°C ni tashkil etishi qayd etilgan. Hidrobiontlar haroratga moslashishiga ko'ra ekologik guruhlarga ajratilgan past haroratga chidamli organizmlar stenoterm va keng harorat oralig'ida yashay oladiganlar evriterm organizmlar ekanligi keltirilgan.

Suvning pH-muhiti ko'rsatkichlari bo'yicha: ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi uchun pH darajasi 7,5 dan 8,5 gacha, qorinoqqli mollyuskalar uchun pH darajasi 6,5 dan 8,5 gacha, *Pontastacus' leptodactylus* uchun pH darajasi 6,5 dan 8,5 gacha, *Haemopus sanguisuga* uchun pH darajasi 6,5-8,0 oralig'i optimal hisoblanadi. Ikki pallali mollyuskalarning ko'payishi pH darajasi 7,5 dan 8,5 gacha, qorinoqqli mollyuskalar uchun pH darajasi 6,5 dan 8,5 gacha, *Pontastacus' leptodactylus* uchun pH darajasi 6,5 dan 8,5 gacha, *Haemopus sanguisuga* uchun pH darajasi 6,5-8,0 optimal daraja hisoblanadi.

Suvning oqim tezligi ko'rsatkichlari bo'yicha: ikki pallali mollyuskalarning 0,1 m/s da, qorinoqqli mollyuskalarniki 1-3 m/s, *Pontastacus' leptodactylus* uchun 0,05-0,15 m/s, *Haemopus sanguisuga* uchun esa 0,3-0,8 m/s bo'lganda yashashi uchun optimal darajaligi aniqlangan. Saproblik indeksi asosida suv sifati baholandi, bunda Vudivis indeksi bo'yicha suvlar ksenosaprob (toza)dan α -polisaprob (juda kuchli ifloslangan)gacha tasniflangan(1-jadval). Sirdaryo daryosining ifloslanganlik darajasi o'rtacha deb baholangan va saproblik indeksiga ko'ra suv o'rtacha iflos (β -mezosaprob) bo'lib, bu anaerob va aerob organizmlarning mavjudligini bilan tasdiqlangan.

1- jadval

Mirzacho‘l hududidagi suv tiplari bo‘yicha tasniflanadigan gidrobiontlarning indikator xususiyatlari.

T/r	Suvlarning ifloslanish darajalari	Turlar soni	Mollyuskalar turlari	Tarqalgan suv tiplari	Suvlarning sifatini ko‘rsatuvchi chegaralar
1.	Oligosaprob – toza suvlar (5-7)	5	<i>Unionidae</i> oilasidan <i>Colletopterum bactrianum</i> , <i>Colletopterum cyreum sogdianum</i> . <i>Corbiculidae</i> oilasidan: <i>Corbicula cor</i> , <i>Corbiculina purpurea</i> va <i>Corbiculina fluminalis</i>	Daryolar, kanallar (Sirdaryo, Sangzor daryolari)	O
2.	β – mezasaprob – o‘rtacha iflos suvlar (3-4),	4	<i>Unionidae</i> oilasidan <i>Sinanodonta orbicularis</i> , <i>Sinanodonta gibba</i> , <i>Sinanodonta puerorum</i> , <i>Colletopterum pondersum volgenae</i> , <i>Pontastacus leptodactylus</i> , <i>Hm. Sanguisuga</i>	Kanallar, daryoning quyi qismi (Mirzacho‘l, Do‘stlik kanallari)	B
3.	α – mezasaprob – ifloslangan suvlar (1-2)	2	<i>Corbiculidae</i> oilasidan <i>Corbiculina tibetensis</i> , <i>Corbiculina ferghanensis</i> , <i>Hm. Sanguisuga</i>	Kanallarlar quyi qismi (Mirzacho‘l, Do‘stlik kanallari quyi qismi).	A

Izoh: oligosaprob – toza suvlar (5-7), β – mezasaprob – o‘rtacha iflos suvlar (3-4), α – mezasaprob – ifloslangan (1-2)suvda yashovchi

Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, Mirzacho‘l hududidagi suv havzalari ifloslanish darajasiga qarab farqlandi. Sirdaryo va Sangzor kabi yirik daryolarda suv sifati yuqori bo‘lishi, Janubiy Mirzacho‘l va Do‘stlik kanallarining quyi qismlarida suv sifati yomonlashishi. Suv sifati gidrobiontlar tarkibiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, yuqori minerallashuv va kislorod yetishmovchiligi gidrobiontlarning zichligiga salbiy ta‘sir qilgan.

XULOSALAR

“Mirzacho‘l hududi suv tiplari ayrim gidrobiontlar populyatsiyalarini tarqalishi va ularni baholash” mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Mirzacho‘l hududining suv muhitida yashovchi 25 tur va 2 kenja tur gidrobiontlar; *Unionidae* va *Corbiculidae* oilalariga mansub bo‘lgan ikkipallali mollyuskalarning 4 sinfga tegishli turlari, 9 turi va 2 kenja turining; qorin oyoqli suv mollyuskalarining 4 oilaga mansub 14 turining; 1 tur qisqichbaqasimon va 1 tur zuluklar tarqalgan. Mirzacho‘l suv tiplari faunasining shakllanishiga Sirdaryo daryosi o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan.

2. Mirzacho‘l hududi gidrobiontlarining ekologik guruhleri yashash biotoplariga moslashuvchanligiga ko‘ra, peloreofil (8 tur – 30%), fitofil(10 tur-37%), reofil(3 tur-11%) krenofil (3 tur – 11%), fitoreofil (1 tur – 4%), pelolimnofil(1 tur-4 %), telmatofil(1 tur-4%), Fitoreofil(1 tur-4%) ekologik guruhlariga ajratib o‘rganilgan.

3. Sirdaryoda 4 sinfga mansub 7 oilaning 22 turi; Zominsuvda 2 sinfga mansub 5 oilaning 12 turi va 1 kenja turi; Sangzor daryosida 4 sinfga tegishli 7 oiladan 19 tur va 2 kenja tur mavjud; Yoshga qarab 2 ta sinfga mansub 5 ta oiladan 13 ta tur tarqalganligi aniqlandi. *Corbiculina tibetensis*, *Planorbis planorbis*,

Planorbis tangitarenis larining daryolarning oʻrta va quyi qismlarida tarqalgan boʻlib, ushbu turlar daryolar gidrologik rejimining oʻzgaruvchanligi va yashash muhitiga keng koʻlamda moslashganligi kuzatildi.

4. “Janubiy Mirzachoʻl” kanalida 3 sinf 6 oila mansub 16 tur; “Doʻstlik” kanalida 3 sinf 6 oila mansub 14 tur; “Jizzax magistral kanali”da 2 sinf 4 oila kiruvchi 7 ta tur va 1 kenja tur; “Arnasoy” suv omboridan chiqish kanalida 3 sinf 5 oilaga kiruvchi 10 ta tur va 2 kenja turi tarqalganligi qayd etildi.

5. *Colletopterum bastianum*, *Colletopterum cyreum sogdianum*, *Corbicula fluminalis*, *Corbicula purpurea* va *Corbicula cor* turlari Mirzachoʻl mintaqasi daryolarining quyi qismida tor doirada yashashga moslashgan turlar hisoblanadi. Ushbu turlarning daryoning oʻrta qismida keng tarqalish kuzatilsada, quyi qismidagi noqulay gidrologik rejim va ifloslanishning yuqori darajasi turli populyatsiyalarning keng tarqalishini cheklab qoʻyilganligi kuzatildi.

6. Sirdaryo daryosining Sirdaryo viloyati hududida tarqalgan *Unionidae* oilasi *Sinanodonta* urugʻi *Sinanodonta gibba*, *Sinanodonta puerorum*, *Sinanodonta orbicularis* turlarining populyatsiya koʻrsatkichlari Sangzor daryosi oʻrta oqimi Gʻallaorol hududidagi populyatsiya koʻrsatkichlari nisbatan katta ekanligi daryoning gidrokimyoviy tarkibi va suv rejimining taʼsiri bilan izohlanadi.

7. Shennon (H) indeksiga koʻra, Sirdaryo daryosi ekotizimida yuqori darajadagi bioxilma-xillik bilan birga oʻrtacha ifloslanish holati kuzatilganligi, Shennon indeksi ($H=3.05$) va hatto esa (turlarning tarqalish kengligi) 0.985, bu suv muhitida organizmlarning yaxshi tur vakilligi va taqsimlanishining bir xilligini koʻrsatadi. Ustunlik indeksi (1-D), ($D = 0.046$) Sirdaryo-0,046, Zominsuvda-0,0569, Sangzor-0,0493, Gʻuralash-0,0808 daryolardagi turlar koʻrsatkichi. Suvning sifati gidrobiont koʻrsatkichlari va Vudiviss indeksi yordamida baholanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Sirdaryo va Sangzor kabi yirik daryolarda suv sifati yuqori boʻlishi, Mirzachoʻl va Doʻstlik kanallarining quyi qismlarida suv sifati yomonlashishi. Suv sifati gidrobiontlar tarkibiga taʼsir qiluvchi asosiy omillardan biri boʻlib, yuqori minerallashuv va kislorod yetishmovchiligi gidrobiontlarning zichligiga salbiy taʼsir qilinadi.

8. *Lymnaea trunculata*, *Lymnaea subangulata*, *Lymnaea bactriana* ushbu turlarning populyatsiyalari juda kichikligi, hamda salbiy antropogen taʼsirlar ostida boʻlganligi uchun Mirzachoʻl hududi suv tiplarida muhofaza ostiga olish, ularni saqlab qolish boʻyicha chora tadbirlar ishlab chiqish zarurligini koʻrsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/27.02.2020.В.01.15 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

ДЖИЗАКСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ТУЙНАЗАРОВА ИРОДА АБДУБОКИЕВНА

**РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПОПУЛЯЦИЙ ОТДЕЛЬНЫХ
ГИДРОБИОНТОВ ВОДНЫХ ТИПОВ МИРЗАЧУЛЬСКОГО РЕГИОНА
И ИХ ОЦЕНКА**

03.00.10 – Экология

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.4.PhD/B845.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Боймуродов Хусниддин Тошболтаевич**
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Эшова Холиса Саидовна**
доктор биологических наук, профессор

Умаров Фаррух Улугбекович
доктор философии (PhD) биологических наук, доцент

Ведущая организация: **Гулистанский государственный университет**

Защита диссертации состоится «15» марта 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.02.2020.B.01.15 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, Студенческий городок, ул. Университетская, д. 4. Корпус Биологического и экологического факультета Национального университета Узбекистана, 2-й этаж, комната 203. Тел.: (+99871)246-67-72, e-mail: nuu-ekologiya@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под № 25) (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, Студенческий городок, ул. Университетская, д. 4. Тел.: (+99871)246-67-72, e-mail: nauka@nuu.uz, www.nuu.uz).

Автореферат диссертации разослан « 28 » февраля 2025 года
(Протокол реестра под номером 25 от « 28 » февраля 2025 года).



Рахимова Тура
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

Абдуаббердиев Рустамжон Хамраевич
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
к.б.н., доцент

Жаббаров Зафаржон Абдукаримович
Председатель Научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время проблема сохранения биоразнообразия пресноводных экосистем признаётся одной из глобальных экологических проблем мирового масштаба.¹ Деятельность человека, включая изменение климата, загрязнение водоёмов, вторжение инвазивных видов и другие антропогенные факторы, оказывает серьёзное негативное влияние на гидробионтов, угрожая сокращением численности их популяций и исчезновением некоторых видов². Поэтому проведение масштабных исследований, направленных на изучение распространения и состояния популяций гидробионтов с целью разработки эффективных стратегий охраны и рационального использования водных биоресурсов, в особенности в регионе Центральной Азии, приобретает актуальное значение.

В мире проводятся научные исследования по изучению объектов биологического разнообразия, сформировавшихся в некоторых природных экосистемах в регионах, где существуют резкие различия между человеком и природой. В связи с этим, согласно классификации некоторых природных экосистем, особое внимание уделяется проведению научных исследований по значению гидробионтов в отдельных искусственных водоемах, их распределению в зависимости от особенностей биотопа, экологическим характеристикам, причинам изменчивости гидробионтов, а также сохранению редких и находящихся на грани исчезновения видов. В этом контексте, объяснение изменений в популяциях гидробионтов с учетом их распространения в различных типах вод и адаптации к разнообразным биотопам, выявление биоразнообразия, редких и эндемичных видов в разрезе регионов, формирование данных по их распространению и оценке имеет важное научно-практическое значение.

В нашей республике особое внимание уделяется составлению кадастра объектов животного мира с учетом состояния популяций и разработке мер по их научно обоснованной охране. В связи с этим налажена практика сохранения гидробионтной фауны крупных водоемов республики, а также охраны видов гидробионтов на водно-болотных территориях на основе международных стандартов. В частности, в новой Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2022-2026 годы поставлены задачи “вывести сотрудничество в области экологии, предотвращения загрязнения окружающей среды и охраны природы в Центральной Азии на новый уровень.” Исходя из этих задач, оценка состояния фауны гидробионтов, сформировавшейся в различных типах вод Мирзачульского оазиса, определение их экологических групп, обоснование и изучение влияния гидробиохимических показателей типов вод, а также

¹ <https://www.nature.com/articles/nature09440>

² <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16336747/>

разработка соответствующих мероприятий приобретают важное научно-практическое значение в качестве приоритетной задачи.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных Законом Республики Узбекистан от 19 сентября 2016 года “Об охране и использовании животного мира,”³ Постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 6 мая 1995 года No 82-I “О присоединении Республики Узбекистан к Конвенции о биологическом разнообразии, подписанной в Рио-де-Жанейро в 1992 году,”⁴ Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 ноября 2018 года No 914 “О ведении государственного учета, учета объемов использования и государственного кадастра объектов животного и растительного мира,”⁴ Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года No 484 “Об утверждении стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годов,”⁵ а также другими нормативно-правовыми документами, относящимися к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с V приоритетным направлением развития науки и технологий республики “Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды.”

Степень изученности проблемы. Исследования, посвященные таксономическому составу, популяциям, биологии и экологии гидробионтов, были проведены ведущими учеными из дальнего зарубежья, такими как Dj.H. Thorp, И.А. Covich (1991), D.C. Aldridj (1999), N.M. Haws (2002), M.M. Horsak (2008), N.F. Mamangkey (2009), K. Szybiak (2009) H.J. Markus (2010), A.F. Vogan (2010), а также Э. Кузник-Ковальская (2011), чьи исследования нашли отражение в научных трудах.

Изучение гидробионтов учеными из ближнего зарубежья, такими как К.К. Увалиев (1990), В.М. Байчоров (2008), И.А. Балашов (2009), Н.И. Андреев (2009), А.Л. Рижинашвили (2009), А.В. Синтюрина, А.Б. Бигалиев (2010), Г.П. Алехина (2010), В.Ф. Панов (2011), М.О. Сон (2012), Л.Н. Янович (2013), В.В. Богатов (2014), Д.В. Кузменькин (2015), Н.В. Гурал-Свердлова, Р.И. Гураль (2010, 2016) было проведено в связи с их значимостью как показателей для определения степени загрязнения воды.

